



**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EiSSN 2181-2187

**11 (73) 2024**

**Сопредседатели редакционной  
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЬЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОВЕВ  
С.А.ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ  
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**11 (73)**

**2024**

*ноябрь*

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.10.2024, Accepted: 02.11.2024, Published: 10.11.2024

UQK 631.574/577:633.39

## ISSIQXONA SHAROITIDA MEVA-SABZAVOTLARNI YETISH TIRISHDA MEHNAT GIGIYENISI

Berdiev Umidjon Azimovich <https://orcid.org/0009-0008-7960-9762>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston,  
Buxoro, st. A. Navoiy. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Rezyume

*O'zbekiston Respublikasi issiqxona sharoitida sabzavotlarni yetishtirishda mehnat gigiyenasi muammolari va ularni sog'lomlashtirishning chora-tadbirlari iborat. Noqulay gigienik mehnat sharoitlari majmuasi issiqxonalarda ishchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Ularning mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotish bilan kasallanish darajasi fermer xo'jaliklarining boshqa kasbiy guruhlari ishchilariga qaraganda yuqori.*

*Kalit so'zlar: Issiqxona sharoitida sabzavotlarni yetishtirish, qayta ishlash, eksport, klaster, kooperatsiya, samaradorlik, qiymati.*

## ГИГИЕНА ТРУДА ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ В ТЕПЛИЧНЫХ УСЛОВИЯХ

Бердиев Умиджон Азимович <https://orcid.org/0009-0008-7960-9762>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,  
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Резюме

*Имеются проблемы гигиены труда при выращивании овощей в тепличных условиях Республики Узбекистан и меры по улучшению их здоровья. Частота случаев временной потери трудоспособности у них выше, чем у работников других профессиональных групп хозяйств.*

*Ключевые слова: Производство тепличных овощей, переработка, экспорт, кластер, кооперация, эффективность, ценность.*

## LABOR HYGIENE IN THE GROWING OF FRUITS AND VEGETABLES IN GREENHOUSE CONDITIONS

Berdiev Umidjon Azimovich <https://orcid.org/0009-0008-7960-9762>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina,  
Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Resume

*There are problems of labor hygiene in the cultivation of vegetables in greenhouses in the Republic of Uzbekistan and measures to improve their health. Their incidence rate of temporary loss of working capacity is higher than that of workers of other occupational groups of farms.*

*Key words: Greenhouse vegetable production, processing, export, cluster, cooperation, efficiency, value.*

### Dolzarbligi

Бугунги кунда О'zbekistonda 6,5 ming gektarga yaqin issiqxonalar mavjud bo'lib, shundan 1,1 ming gektar (shundan 17 foiz) gidroponik, 4,9 ming gektar (83 foiz) yerni tuproqdan etishtirish usuli bilan parvarishlanadigan issiqxonalar tashkil etadi.



O'zbekistondagi issiqxona xo'jaliklarida sabzavot yetishtirishda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. O'g'it va sug'orish suvi sarfini kamaytirish uchun issiqxonalarda tomchilatib sug'orish, masofadan boshqarish va gidroponik usulda ishlov berish qo'llaniladi. Natijada bunday issiqxonada yetishtirilgan hosil an'anaviy usulga nisbatan 30 foizga oshadi, suv va o'g'it sarfi esa 30-40 foizga kamayadi. Tomchilatib sug'orish tizimi va gidroponika usuli joriy etilgan issiqxonalar uchun masofaviy avtomatik o'g'it kiritish tizimi va agrokimyoviy laboratoriyalar o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017- yil 9-oktabrdagi "fermer, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalarini huquq va erkinliklarini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi UP 5199-sonli farmoni, 2019-yil 29-martdagi "Meva-sabzavot yetishtirishni jadallashtirish to'g'risida" gi PK-2903 sonli qarorlari asosida qishloq aholi punktlari nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda, balki balki ularning madaniy saviyasi ham o'smoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston aholisini yil davomida ho'l meva va sabzavotlar bilan ta'minlash va mamlakatimizning eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadida issiqxona sharoitida meva va sabzavotlar yetishtirilishi avj oldirilmoqda.

Issiqxona sharoitida sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari, shaxsiy tomorqa egalarining soni kundan kunga ko'payib bormoqda. Meva va sabzavotlar ko'chatlari maxsus tashkillashtirilgan kultivatsion inshootlarda – issiqxonalarda yetishtiriladi. Issiqxonada barcha agrotexnik jarayonlar qo'lda bajariladi. Demak, issiqxona sharoitlarining ayrim tarmoqlari avtomatlashtirilganiga qaramasdan, bu inshootlarda ishlaydigan ishchilarning mehnat sharoiti og'irligi saqlanib olinmoqda.

Issiqxonalarda qish va bahor oylarida mikroiklim komponentlari ( harorat namlik) belgilangan me'yorga to'g'ri kelmaydi. Shuningdek, issiqxona sharoitida barcha agro-texnik jarayonlar butun mavsum davomida ishchilarga kimyoviy omillar ( uglerod oksidi, azot oksidi, farmaldegid) doimiy ta'sir etib turadi.

Issiqxonalarda sabzavot mahsulotlari yetishtirishda agrotexnika va texnologiyalarining jadalligi, inshootdagi mikroiklim sharoiti o'simliklarning zararkunanda va kasalliklarning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Issiqxona sharoitida ishlatilgan pestitsidlar miqdori va zararli karrasi ochiq sharoitdan ko'ra yuqoriroq bo'ladi. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, issiqxona sharoitida mehnat qilayotgan ishchilarga og'ir jismoniy bosim, noqulay mikroiklim, kimyoviy omillar va biologik omillar salbiy ta'sir etadi. Issiqxona sharoitida sabzavotlarni yetishtirishning mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lomlashtirishni taqozo qiladi. Ushbu ilmiy izlanish aynan shunday muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan.

Issiqxonalar va izolyatsiyalangan tuproq inshootlari havo va tuproqning harorat rejimini yaxshilaydigan va shu bilan ochiq erga nisbatan hosilni tezlashtiradigan eng oddiy qishloq xo'jaligi tuzilmalaridan biridir. Ushbu tuzilmalardagi ishlar mavsumiy bo'lib, mexanizatsiyaning pastligi tufayli ko'pchilik operatsiyalar qo'lda bajariladi. Himoyalangan tuproqli etishtirish inshootlarining eng ilg'or turi issiqxonalaridir. Ularda statsionar to'siqlar ostida barcha asosiy agrotexnik tadbirlar turli mexanizmlarni keng qo'llash bilan amalga oshiriladi. Maqsadiga ko'ra issiqxonalar sabzavot, ko'chat va gulga bo'linadi. Mamlakat issiqxona iqtisodiyotining asosini sabzavotchilik tashkil etadi, u yirik sanoat markazlari va shaharlar atrofida rivojlanadi.

Issiqxonalar xizmat muddati va isitish usuliga ko'ra mavsumiy - bahor-yoz va yil davomida - qishki bo'linadi. Statsionar issiqxonalaridan tashqari ko'chat yetishtirish uchun ko'chma issiqxonalar ham mavjud.

**Ilmiy ishning maqsadi:** Noqulay gigienik mehnat sharoitlari majmuasi issiqxonalarda ishchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Ularning mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotish bilan kasallanish darajasi fermer xo'jaliklarining boshqa kasbiy guruhlari ishchilariga qaraganda yuqori. Kasallikning tuzilishida sovuq etiologiyali kasalliklar (o'tkir respiratorli infeksiyalar, bronxit, tonzillit) ustunlik qiladi; periferik asab tizimining kasalliklari (radikulit, yuqori ekstremitalarning polinevralgiyasi); nafas olish tizimining allergik kasalliklari (astmatik bronxit) va terining (allergik dermatit).

Issiqxona ishchilarining organizmiga ishlab chiqarish muhitining va mehnat jarayonining noqulay omillarining zararli ta'sirini bartaraf etish yoki cheklash uchun tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena va davolash rejasining profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish, yanada takomillashtirish zarur. agrotexnik operatsiyalarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayonlari (tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash va pestitsidlar, sug'orish va hosilni yig'ish uchun).

Issiqxona sharoitida meva va sabzavotlar yetishtirilishida ishtirok etadigan ishchilarga ta'sir etadigan salbiy omillarni o'rganish va ulardan muhoafaza qilish hamda sog'lomlashtirish chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

#### **Ilmiy izlanishning vazifalari:**

- Issiqxona agrotexnikasi sharoitida paydo bo'ladigan fizikaviy (harorat, namlik), kimyoviy (uglerod oksidi, azot oksidi, formaldegid, pestitsidlar), biologik ( bakteriya, zamburug'lar, gelmintlar) va laboratoriya tekshirishlari asosida baho berish;

- Yopiq usulda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradigan mehnat sharoitini xronometraj qilish;

- Issiqxona sharoitida meva va sabzavotlar yetishtirilishining agrotexnik va texnologik jarayonlarni gigiyenik baholash;

- Issiqxona sharoitida mehnat qilayotgan ishchilar sog'ligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Tekshirish obyektlari.** Ilmiy tekshirishlar issiqxonalarda amalga oshiriladi. Tekshirishlarda sanitar tasnifiy, fizikaviy, kimyoviy, biologik va analitik usullar qo'llaniladi.

**Kutiladigan ilmiy yangilik.** Sabzavot va mevalarni yopiq usulda yetishtirishda ishchilarga ta'sir etadigan zararli omillarning turi va miqdori aniqlanadi. Ular ta'sirida ishchilar organizmida paydo bo'ladigan patologiyalar gigiyenik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, yopiq sharoitda meva va sabzavotlar agrotexnikasi mehnat sharoitlari sog'lomlashtiriladi.

#### **Natija va tahlillar**

Issiqxonalarda sanitariya-gigiyenik mehnat sharoitlari bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bunga quyidagilar kiradi: noyob mikroiklim sharoitlari, mineral o'g'itlar va pestitsidlarning keng qo'llanilishi, ayrim hollarda havoning ifloslanishi, ayrim operatsiyalarning etarli darajada mexanizatsiyalanmaganligi. Issiqxonalaridagi mikroiklim o'simliklarni etishtirish texnologiyasi bilan belgilanadi. Gigiyenik nuqtai nazardan, odatda ko'tarilgan harorat, yuqori namlik va havoning minimal harakatchanligi bilan ajralib turadi. Issiqxonalarining mikroiklimi qoplamalarning tabiatiga va isitish usuliga bog'liq.

Ekin o'stiriladigan qurilmalar ichida talabga to'liq javob beradigan sharoitni yaratish ochiq maydonga nisbatan 5-20 marta ko'p sifatli hosil olishni ta'minlaydi. Yil mobaynida issiqxonada bir maydonda 2-4 ekinni o'stirish yalpi hosilni yanada ko'paytiradi. Shu bilan birga issiqxonalarni qurishda katta mablag', ish kuchi sarflanadi, bu o'z navbatida u yerda yetishtirilgan sabzavot hosili tannarxini ochiq maydonda yetishtirilganga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Himoyalangan yer sabzavotchiligining xususiyatlariga shuningdek, u egallagan maydonning katta bo'lmasligi va u yerga ularni ixcham joylashtirilishi; kultivatsion qurilmalarni issiqlik va sug'orish manbalariga yaqin joylashtirish; ekin o'stiriladigan binolardan nihoyatda jadal foydalanish; ishlab chiqarishda qo'l mehnatini ko'p talab qiladigan jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish bilan qo'shib olib borish, mehnatni tashkil etishning o'ziga xos shakllarini tadbiq etish; mikroiklim sharoitini yaratib beradigan hamda murak-kab ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanadigan uskuna va jihozlardan samarali foydalanish bilimiga ega bo'lgan yuqori malakali ishchilar bilan ta'minlangan bo'lishidir.

Himoyalangan yer sabzavotchiligi o'zining vazifasi va xususiyatlariga ega bo'lishi bilan birga, u ochiq yer sabzavotchiligi bilan ishlab chiqarish bo'yicha chambarchas bog'langan. Ular quyidagilardan iborat: himoyalangan yerda dalaga o'tqazish uchun ko'chat yetishtiriladi; himoyalangan yer inshooti biologik usulda isitilsa ochiq dala uchun qo'shimcha chirindi yetkazib beruvchi vazifasini bajaradi. Ochiq dalada o'z navbatida himoyalangan yerda yetiltirib va tezlantirib o'stirish uchun o'tkaziladigan material tayyorlanadi. Shuningdek, ochiq dala to'liq yetiltirib olish uchun mevalar yetkazib beradi. Ochiq maydonda issiqxona uchun tuproq aralashmasi ayrim komponentlari tayyorlanadi. Ochiq va himoyalangan yer sabzavotchiligi bir-biriga to'g'ri bog'langan holda olib borilsa, yil mobaynida bir xil ishlab chiqarish jarayoniga erishish mumkin, bu ishchi kuchiga talabni tenglashtirish va hosilni uzluksiz chiqishini ta'minlaydi. Shu bilan birga sabzavot hosilini yetishtirishga va ochiq dala uchun sabzavot ko'chatintayyorlab berishga ixtisoslashgan yirik issiqxona kombinatlari va ayrim issiqxonalar ishlari yuqori samara berishligi amalda isbotlangan.

## Xulosa

Pestitsidlar bilan zaharlanishning oldini olishda shaxsiy himoya vositalari, shu jumladan kombinezonlar, xavfsizlik poyabzallari, qo'lqoplar, ko'zoynaklar, respiratorlar va gaz niqoblari muhim rol o'ynaydi. Issiqxona ishchilari shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish bo'yicha o'qitilishi kerak. Pestitsidlar bilan zaharlanishning oldini olishning istiqbolli usuli ularni o'simliklarni himoya qiluvchi biologik vositalar bilan almashtirishdir.

Buxoro viloyatida 2019-2023 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalar qurish, amaldagilarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, qadoqlash materiallari ishlab chiqarish dasturi doirasida issiqxonaga Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan yuqori samaradorlikka ega zamonaviy uskunalarni keltirib o'rnatilganligi viloyatda bu sohani rivojlantirish amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Inobatov A. O'zbekistonda uzumchilik sohasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari *Biznes-daily.uz* 11.11.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. "Ekonomika i sotsium" №4(107)-1 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 605
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi "Meva sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. Xasanov S. O'zbekistonda meva-sabzavotlikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari "Ekonomiceskoe obozrenie" jurnali 2020 yil 6 (246)-son.
7. [www.agrobusiness.ru](http://www.agrobusiness.ru)
8. [www.uzexport.com](http://www.uzexport.com)
9. [www.uzex.com](http://www.uzex.com)
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида" ПФ-60-сонли Фармони. "Экономика и социум" №4(107)-1 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 605
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартдаги "Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 мартдаги "Мева сабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 декабрдаги "Мева-сабзавотчилик ва узумчилик тармоғини янада ривожлантириш, соҳада қўшилган қиймат занжирини яратишга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида"ги қарори.
15. Инобатов А. Ўзбекистонда узумчилик соҳасини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари *Biznes-daily.uz* 11.11.2019.
16. Хасанов С. Ўзбекистонда мева-сабзавотчиликни ривожлантириш тенденциялари ва истикболлари "Ekonomiceskoe obozrenie" журналі 2020 йил 6 (246)-сон.
17. [www.agrobusiness.ru](http://www.agrobusiness.ru)

**Qabul qilingan sana 20.10.2024**